

PUDRAT SHARTNOMASI (KONTRAKT)

15-son

2022 y. «10» 10

520-12-218-XT/2022-son

Tuproqqa'l'a tumani

Tuproqqa'l'a tuman Xalq talimi bo'limi keyingi urinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan nomidan nizom asosida ish ko'ruchchi **O.Matkarov** bir tomondan, keyingi urinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan "**HAZORASP SAVDO-QURILISH**" MCHJ nomidan nizom asosida ish kuruvchi **A.Babayev** ikkinchi tomondan «joriy ta'mirlash ishlarini bajarish» boyicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

- ijro hujjatlari** – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan uzgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofikligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt kurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va urnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda kullaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshka hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;
- kuriish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma buyicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;
- vaktinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'matiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaktinchalik binolar va inshootlar;
- berkitiladigan ishlar** – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;
- shartnoma narxini bo'lib chiqish** – ishlarning har bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq **Tuproqqa'l'a tuman Xalq talimi bo'limiga qarashli 17-maktabni** ko'zda tutilgan loyixa hujjatlari bo'yicha **joriy tamirlash** ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovnini amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda QQS bilan **40 000 000 (Qirq million)** so'mni tashkil etadi.
4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:
 - qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
 - ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
 - ob'ektning qurilishi bir yildan ortik muddatga uzgartirilganda.
5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

7. Mazkur shartnama bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

-barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarishda nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda isjni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;

- qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

- qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

- qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

- mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomaga imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini uziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

- qmaydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

- qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'g'risida shartnoma tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.

-mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt harajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.

9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlarni bajarilganini isbotlovchi hujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentatsiya) toliq hajmda taqdim qiladi.

10. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrga dalolatnomaga bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlarni bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rivoja etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

- Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatlarini oladi;

12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnoma G'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgandan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

14. Pudratchi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan loyixa hujjatlari bo'yicha joriy ta'mirlash ishlarni bajaradi.

15. Ta'mirlash ishlarni bajarish muddati 20 kalendar kunni tashkil etadi.

VII. TO'LOVLAR VA HISOB – KITOBLAR

16. Shartnoma bo'yicha o'zaro hisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.
17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu 12 000 000 so'mni tashkil etadi.
18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun byudjetdan maqsadli berilgan mablag'lar uch bank kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi.
19. Buyurtmachi tamonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar hajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin haqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan holda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.
20. Pudratchining hisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lган materiallar, texnika resurslari, mehnatga haq to'lash, ob'ekt qurilishida ishtiroy etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va Ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.
21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun hisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'grisidagi ma'lumotnomma hisob-varaq-fakturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarning miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.
22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy hisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomma hisob-varaq-faktura» asos bo'ladi.
23. Pudratchi ob'ekt foydalanimishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirunguga qadar ob'ektning tasodifiy yuk qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi kurilish maydonida uz vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalanimish materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjalari muvofiqligini tekshiradi.
25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huhuhiga egadir.
26. Pudratchi texnik auditorni ishslash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.
27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasiga ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.
28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjalardan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligesiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.
29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniklasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir. Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechiikishi oqibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.
30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining uzaro munosabatlariada ahamiyatga ega bo'lган hollar va holatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bulishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'lik to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'grisidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bulgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi. Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan ko'nikmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) HOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'l maydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlар mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'l maydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlari yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bo'l maydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:

- barcha ishlarni to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- loyixa hujjatlariga hamda ko'rinish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;
- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;
- ishlarni kabul kilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniklangan kamchiliklar va nuksonlarni uz vaktida bartaraf kilishni;
- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish koidalariga muvofikligini kafolatlaydi.

Mavjud nuksonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida kayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuksonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada kursatilgan muddat iichida bartaraf etmassa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% mikdorida jarima solish xuquqiga ega.

XII. SHARTNOMANI BEKOR KILISH.

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga boglik bulmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
 - ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
 - Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalariда nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;
- qonun hujjatlariga muvofik boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga boglik bulmagan sabablarga kura Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortik muddatga tuxtatib kuyilganda;
 - Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;
- konun xujjalari muvofik boshqa asoslar buyicha shartnomaning bekor kilinishini talab kilish xukukiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarni qiyomatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomaning bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilinganda taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIII . TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi hollarda javobgar buladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnama bo'yicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% mikdorida jarima tulaydi;
- buyurtmachining xisob rakamiga maksadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablaglarini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob rakamiga utkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% mikdorida jarima tulaydi;
- shartnomaga muofik ishlarni bajarish jadvali buyicha bajarilgan ishlarni xajmini asossiz ravishda kabul kilib tasdiklashdan bosh tortgani uchun ushbu kabul kilish, tasdiklashdan bosh tortgan summaning 5% mikdorida jarima tulaydi;
- shartnoma shartlariga muofik tayyor xolda kabul kilish uchun takdim kilingan ob'ektni asossiz ravishda kabul kilishdan bosh tortsa shartnoma kiymatining 5% mikdorida jarima tulaydi;

42. Mazkur shartnomada kuzda tutilgan va tegishli ilovalarda kursatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi hollarda mulkiy javobgar buladi va:

- Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam hajmda ishlarni bajarsa , majburiyatlarining bajarilmagan qismidan har kechiktirilgan kun uchun 0.01% miqdorda penya to'laydi.
- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga kadar tasdiklatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlarni kiymatining 0.1% mikdorida jarima tulaydi;
- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdordan kam bajarsa, bajarilmagan qismining 0.1% mikdorida jarima tulaydi;
- ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma kiymatining 0.1% mikdorida jarima tulaydi;
- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuksonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (un kundan ortik bulmagan) muddatda bartaraf kilmasa ushbu aniklangan kamchiliklar, nuksonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni kiymatining 5% mikdorida jarima tulaydi.

43. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, korxona atamasi yoki makomini notugri bersa va uzgarganligi tugrisidagi ma'lumotni uch kalendor kunda ikkinchi tomonga yozma xabar bermasa aybdor tamon ikkinchi tomonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.

44. Bir tomonning aybi bilan shartnomani bekor qilishga to'g'ri kelsa, aybdor tamon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.

45. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib tulaydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% oshmasligi kerak.

46. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnama asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga haqlidir.

XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

47. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki uzgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo buladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat qilishlari mumkin.

XV.TOMONLARNING KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI.

48. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rivoja etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki

nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

49. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

50. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

XVI. ALOHIDA SHARTLAR

51. Mazkur shartnama imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bulgan tomonlar urtasidagi barcha oldingi yozma va ogzaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning uzaro kelishuvlari uz kuchini yukotadi.

52. Pudratchi kurilish ob'ektiga yoki uning aloxida kismlariga tegishli ish xujjalarni Buyurtmachining yozma ruxsatsiz, subpudratchilardan tashkari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xukukiga ega bulmaydi.

53. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha uzgartirish va kushimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bulsa, xakikiy xisoblanadi.

54. Buyurtmachi bilan Pudratchi urtasidagi mazkur shartnomadan kelib chikmaydigan yangi majburiyatlar paydo bulishiga olib keladigan xar kanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga kushimchalar yoki uzgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiklashi kerak.

55. Agar Pudratchi shartnama buyicha ishlar yakunlangandan keyin kurilish maydonida uziga tegishli mol-mulkni koldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi kurilish maydonini ozod kilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xak tulashni kechiktirishga xaklidir.

56. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-konun xujjalari QQS tug'risida uzgartirishlar kiritilsa kayta kurib chikiladi.

57. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshka barcha xollar uchun amaldagi konun xujjalari kullaniladi.

58. Mazkur shartnama Byudjet kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgandan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

58. Mazkur shartnama bir xil yuridik kuchga ega bulgan 2 nusxada tuzildi.

59. Shartnomani amal qilish muddati «31» Dekabr 2022 yilgacha.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.


PUDRATCHI:

BUYURTMACHI:

"HAZORASP SAVDO-QURILISH" MCHJ		Tuproqqala tuman Xalq talimi bo'limi
Manzili: Tuprokkala tumani Muxabbat maxallasi		Manzili: Tuprokkala tumani
Tel/faks: 97-5120346		Tel/faks: 93-928-87-10
h/r: 20208000800956529001		sh/hr: 100022860332217092100075021
INN: 305945118		INN: 307302504
OKONX: 61110		MFO : 00014 INN: 201122919
Bank: Xozarasp t Agrobank		Moliya Vazirligi G'aznachiligi
MFO: 00558		G'azna x/v : 23402000300100001010
		Bank : Markaziy bank Toshkent sh XKKM



A.Babaev



O.Matkarov

10.10.2022 йилдаги 15-сонли
шартномага
Илова №1

Жадвал

Танлов комиссиясининг карорига асосан ютиб олинган объектнинг ойлар бўйича молиялаштирилиши ва ишларни бажариш графиги

№	Номи	КОД:	Жами молиялаш- тирилган маблаг	2022 йил ойлар бўйича молиялаштириш ва бажариш											
				1 чорак			2 чорак			3 чорак			4 чорак		
				январь	февраль	март	апрель	май	июнь	июль	август	сентябрь	октябрь	ноябрь	декабрь
1	Аванс (30%)		12000000,0										12000000		
	Tuproqqala tuman Xalq talimi bo'limiga qarashli 17- son mablagni joriy ta'mirlash	42-32-200	28000000										28000000		
	Жами:		40 000 000										40000000		

Тупроқкалья туман Халқ таълими булими мудири

Буюртмачи:



О.Маткаримов



"HAZORASP SAVDO-QURILISH" МЧЖ

Пудратчи:



А.Бабаев

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

SW0304571158

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Xo‘jalik munosabatlari

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: TUPROQQAL‘A TUMANI XALQ TA'LIMI BO'LIMI tomonidan 11.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Tuproqqal'a tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



M.R.SADIKOVA

11.10.2022